

## **MAMLAKATIMIZDA O'ZBEK TILINING YANGI IJTIMOIY TARIXIY ASPEKTLARI**

**Obidova Dilorom Shorahmatovna,**  
GulDU-2-kurs magistri,  
[rasul.obidov@mail.ru](mailto:rasul.obidov@mail.ru)

Til – millat qiyofasining bir bo‘lagi. Shu sababli hali mustaqillikka ilk qadamlar tashlanayotgan davrdayoq o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Dunyodagi barcha xalq o‘zining milliy rasmiy tiliga ega, deb aytolmaymiz. Chunki bu xalqning milliy mustaqilligi bilan bog‘liq. Bu olamshumul hodisaning tub mohiyatini kelajak avlod ongiga singdirish, unga muhabbati, sadoqatini yanada mustahkamlash shu til jonkuyarlari – o‘qituvchilar, tilshunoslar, umuman o‘zini shu millatning farzandi deb bilgan har bir shaxsning har kunlik burchi bo‘lishi shart. Shundagina o‘sib kelayotgan yosh avlod til nega milliy g‘urur ekanligini his etadigan, turli ma’naviy, mafkuraviy tahdidlar ta’siriga tushmaydigan bo‘lib yetishadi[1].

2019-yil 21-oktyabr kuni Davlatimiz rahbari “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonni imzoladi. Xususan, 21-oktyabr yurtimizda “O‘zbek tili bayrami kuni” deb belgilandi. Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etildi. Qolaversa, Vazirlar Mahkamasi huzurida o‘z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiradigan, yangi so‘z va atamalarni rasmiy iste’molga kiritadigan Atamalar komissiyasi ishlab turibdi. Bu, albatta, muhim hujjat, davlat tilini rivojlantirishga qaratilgan ishlarning mantiqiy davomi, sohada yana bir muhim qadam. Chunki O‘zbekistonda shu vaqtgacha davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariiga rioya etilishi ustidan monitoringni amalga oshiradigan yagona, mustaqil va markazlashgan tuzilma yo‘q edi.

“Davlat tili haqida”gi qonunning bir qator normalari deklarativ va umumiyl xarakterga ega bo‘lganligi sababli ko‘zlangan maqsadlarga to‘la erishish imkonini bermayapti. Xususan, “Davlat tili haqida”gi qonunning (keyingi o‘rinlarda Qonun) 8-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e’lon etiladi. Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tillarda ham e’lon qilinadi”, deb belgilangan bo‘lsa-da, ayrim sohalardagi davlat idoralarida hujjatlarni davlat tilida qabul qilish yetarlicha yo‘lga qo‘yilmagan. Bu esa ayrim hollarda jismoniy va yuridik shaxslarga noqulayliklar keltirib chiqarmoqda. Shuningdek, Qonunning 10-moddasida



korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari davlat tilida yuritiladi, ishlovchilarining ko‘pchiligi o‘zbek tilini bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkinligi belgilanganligiga qaramasdan, ayrim sohalarda statistika va moliya hujjatlari, shartnomalar talab darajasida davlat tilida yo‘lga qo‘yilmagan. Xususan, ayrim xizmat ko‘rsatish sohalari (**kommunal, internet xizmatlari va hk.**) tomonidan shartnoma, dalolatnoma, ogohlantirish xati kabi hujjatlarni xorijiy tilda rasmiylashtirish holatlarini ko‘rish mumkin. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining hujjatlarida o‘zbek tilida o‘rindoshi mavjud bo‘lgan so‘zlardan foydalanmasdan xorijiy atamalarni (**termin, shtat, komissiya** va boshqa shu kabi so‘zlarni) qo‘llash holatlarini ham uchratish mumkin[2].

Til – muqaddas va e’zozlangan tushuncha, har bir inson uchun o‘z onasi kabi aziz va mo‘tabar. Til – hayotning boshlanishi. Inson o‘z ona tili yordamida yangi tushunchalar va munosabatlarni anglay boshlaydi. Ona tili bizga ona suti bilan singdiriladi. Inson ulg‘aygan sayin atrofidagilar bilan muloqot qilish, badiiy kitoblar o‘qish orqali so‘z boyligini oshirib boradi. Ota-bobolarimiz tarixi, milliy va ma’naviy qadriyatlarimiz bizga ona tilimiz yordamida meros bo‘lib qoldi. Xalqlar tarixi – bu ular tilining tarixi.

Turkiy til VII-VIII asrlardan boshlab yuzaga kela boshlagan. Dastlab turkiy tilda Mahmud Qoshg‘ariy, Yusuf xos Xojib, Ahmad Yugnakiy va Rabg‘uziy o‘zbek tilining rivojlanishida katta hissa qo‘shishgan. XI-XV asrlarda Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy va Xorazmiy kabi shoirlar ham o‘zlariga xos o‘rin tutdilar. Ushbu shoirlar va o‘z davrining atoqli yozuvchilari yaratgan mashhur asarlardan ingliz, fransuz, nemis, yapon va xitoy olim va shoirlari ko‘plab foydalanib kelishgan. XV asr o‘zbek tilining gullab-yashnagan davri bo‘lgan. Bu davr Alisher Navoiy ijodiga ham bog‘liq. “Xamsa”, “Xazoinul-maoniy”, “Muhokamatul lug‘atayn”, “Majoinul nafois” kabi asarlari bilan Navoiy turk tilini jahon miqyosiga olib chiqdi.

So‘z mulkinining sultonni Alisher Navoiy tilimizni “shajara bog‘i” timsolida his etib, xalqni bulbulga qiyosladi. Ana shu boqqa gard tushmasin, bulbullarning ovozi hamisha yangroq va baland bo‘lsin, dedi.

Dunyoga mashhur “Devoni lug‘atut turk” asari Mahmud Qoshg‘ariy tomonidan hijriy 464, milodiy 1068 yili yozib tugallangan. Ushbu asar XV asr turkiy qabilalarining til xususiyatlari, og‘zaki ijodini o‘rganishi uchun asosiy manba hisoblangan. Lug‘at hozirgi lug‘atlarga o‘xshab yolg‘iz so‘zlarning lug‘aviy ma’nosini izohlabgina qolmasdan balki, unda o‘sha davrda o‘g‘uz, uyg‘ur, qipchoq, chigil, qarluq kabi 37 urug‘ birlashmalariga kirgan turkiy urug‘ va qabilalarning



fanatik, leksik, grammatik til xususiyatlarini ta'riflovchi tarixga oid asarlar hamdir. Devonda turkiy urug'larning joylashishi hamda xaritasi ham ilova qilingan.

Mahmud Qoshg'ariy Chin (Xitoy) davlatidan butun Mavarounnahr (Xorazm, Farg'ona, Buxoro, Dashti qipchoq)ni kezib, bu yerlarda joylashgan turkiy urug' va qabilalarining tili, ijtimoiy turmushini, tarixini o'rganadi. "Devoni lug'atit-turk" asarining taxminan XV asrda ko'chirilgan qo'lyozmasi va turk tiliga tarjimasi 1860-63 yillarda professor S. Mutalibov tomonidan tarjima qilindi. Bu uning 20 yillik ishi natijasi edi[3]. Millatlarni ajratib turuvchi asosiy belgilardan biri bu til ekan, har bir inson o'z tilini bilishi, uni ulug'lashi va shu bilan birga boshqa millatlarning ona tiliga ham hurmat bilan qarashi lozim. Shundagina tilning, millatning qadri va obro'yi, nufuzi oshadi. Til tarixini, uning me'yoriy nuqtai nazardan shakllanish jarayonini, rivojlanishini millat tarixidan ayri holda o'rganib bo'lmaydi.

Yuqori rivojlangan davlatlar darajasiga erishish va raqobatdosh bo'lish uchun O'zbekiston fuqarolari xalqaro tillarni bilishlari muhim, albatta. Chunki biz global rivojlanish tendensiyalaridan orqada qola olmaymiz, lekin shuni unutmaslik kerakki, o'zbek tili dunyodagi barcha rasmiy tillar qatori suveren til maqomini olgan ekan, har bir O'zbekiston fuqarosi davlat tilini bilishi shart. Hech kim hech qachon o'z ona tiliga bo'lgan hurmatni yo'qotmasligi kerak. Tilga hurmat – bu xalqqa hurmat. O'z ona tiliga ega bo'lmagan xalq mamlakat bo'lolmaydi. Tilning egasi xalq, ammo xalqning bitta vakili loqayd bo'lsa ham milliy til sofligiga putur yetadi. Til davlat timsoli, mulki hisoblanadi. Til madaniyatiga amal qilinmasa, milliy madaniyatga dog' tushadi. Shu sababli, bu ulkan hodisaning tub mohiyatini kelajak avlod ongiga singdirish, ona tiliga bo'lgan muhabbat va sadoqatini yanada mustahkamlash borasida olib borilayotgan ishlar ko'lami yil sayin kengayib bormoqda. Binobarin, o'zini o'zbek millatining farzandimani, deb bilgan har bir shaxs ona tilimizga e'tiborli bo'lishi, uning sofligini asrab-avaylashni muqaddas burchi deb bilishi shart.

O'zbek tilining Vatanimizda davlat tili sifatida amal qilinishining huquqiy asoslari qonunan belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni uch tamoyilga: umumiylik, majburiylik va huquqiy kafolatga asoslanadi. Darhaqiqat, davlat tilining mustahkam huquqiy maqomi belgilab qo'yilgani tilimizning boy imkoniyatlaridan keng foydalanishga yetarlicha zamin yaratib, mamlakatimizda istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urfodatlari va an'analari hurmat qilinishi barobarida o'zbek tilining erkin muomalada bo'lishi uchun zarur shart-sharoitni yaratib berdi. Dunyoda taniqli mamlakat bo'lish uchun biz davlat tilining maqomini ko'tarishga erishishimiz lozim.

So'nggi yillarda mamlakatimizda barcha sohalarda bo'lgani kabi tilimiz taraqqiyotida ham muhim o'zgarishlar yuz bermoqda. O'zbek tilining xalqaro



miqyosda obro‘yi oshib, faol muloqot vositasiga aylanib bormoqda. Turli darajadagi rasmiy uchrashuv va muzokaralarda tilimiz keng qo‘llanayotgani, xorijdagi qator ta’lim dargohlarida, ilmiy muassasalarda o‘zbek tili markazlari tashkil etilib, ularda ona tilimizni o‘rganishga qiziquvchilar soni ko‘payib borayotgani buning yaqqol dalilidir. **Ona tilimiz – o‘zbek tiliga 1989 yil 21 oktyabrdan davlat tili maqomi berildi.** Bu mamlakatimiz, yurtdoshlarimiz hayotidagi unutilmas, tarixiy voqeaga aylandi. Ayni paytda tilimizning ijtimoiy mavqeini yanada mustahkamlash, yuksaltirish uchun ham beqiyos imkoniyat yaratildi.

Olimlar va mutaxassislar tomonidan ilm-fan va turli sohalarga oid ensiklopediya va lug‘atlar, darslik va o‘quv qo‘llanmalari chop etildi. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosining yaratilishi uni amaliyatga tatbiq etilishi ham shu ishlarning uzviy davomi bo‘ldi. E’tirof etish kerakki, dunyodagi 200 ta til bugungi kunda davlat tili maqomiga erishgan bo‘lib, shular orasida o‘zbek tili ham bor. Bu esa, har birimizning qalbimizda faxr-iftixor tuyg‘ularini uyg‘otib, tilimiz sofligini saqlashda zimmamizga mas’uliyatlar ham yuklaydi. Yosh avlodni ana shu ruhda tarbiyalash esa pedagoglar, qolaversa, keng jamoatchilikning vazifasi, burchi hisoblanadi.

O‘zbek tilining boy imkoniyatlari bugungi kunda tilshunoslarimiz tomonidan chuqur o‘rganilmoqda.

O‘zbek adabiy tili turkiy tillar guruhiya mansub bo‘lib, u mustaqil til sifatida XI asrdan boshlab shakllana boshladi va to hozirgi kunimizgacha bu tilda ko‘plab ilmiy va badiiy asarlar yaratildi. Xususan, Maxmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit-turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Xorazmiyning “Muhabbatnoma”, Rabg‘uziyning “Qissai Rabg‘uziy”, shuningdek, Atoyi, Sakkokiy, Sayfi Saroiy, Mavlono, Lutfiyarning yaratgan boy ilmiy-adabiy meroslarini tilga olish mumkin. Ayniqsa, turkiy tilning beqiyos imkoniyatlarini ko‘rsatishda Alisher Navoiyning buyuk xizmatlarini alohida e’tirof etish joiz. Hazratning nafaqat badiiyati, balki tilshunoslikka bag‘ishlangan “Muhokomatul lug‘atayn”, ya’ni “Ikki til muhokamasi” nomli asari shu sohadagi qiyosi yo‘q manba hisoblanadi. Qolaversa, shoh va shoir Bobur Mirzoning tilimizda yaratgan go‘zal asarlari bugun ham o‘quvchilar tomonidan sevib mutolaa qilinadi. Albatta, ona tilimizning taraqqiyoti yuqorida nomlari keltirilgan buyuk ajdodlarimizning yuksak muhabbatida ko‘rinib turadi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili me’yorlashtirilgan bo‘lib, tilimizning lug‘at boyligi, tovush tizimi va grammatik qurilishi olimlar tomonidan ilmiy asoslarda o‘rganilgan. Bu sohadagi izlanishlar bugun ham davom etmoqda. Aytish joizki, o‘zbek tili mamlakatimiz maktablarida XX asrdan boshlab o‘qitala boshlandi. Ta’lim



jarayonida kishilarimizning tilga oid bilimlari shakllantirilib, nutqiy savodxonlik darajasi o'stirib borildi. Bugun maktab, kollej, akademik litseylar va oliy o'quv yurti talabalari uchun yangi avlod darsliklari yaratilib, ularda tilimizni yangicha asosda o'rghanishga e'tibor qaratilmoqda. Bu esa, shubhasiz o'zining ijobiliy natijalarini berib kelmoqda[4].

### **Foydalanilgan Adabiyotlar:**

1. Sh.Mirziyoyev. O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va maqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. –T., 2019 yil 21 oktyabr, PF-5850-son.
2. Mirziyoyev Sh.M. O'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, beباho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir // Xalq so'zi gazetasi. – 2019 yil 22 oktyabr, 218-son.
3. G.Ortiqxo'jayeva. Davlat tili-faxrimiz, g'ururimiz.Adolat. 23.10.2015.
4. Nurmatov,S.Avezov,O'zbek tili chindan ham davlat va xalq tili darajasiga erisha oldimi? 07.10.2020. <https://www.xabar.uz/uz/jamiyat/ozbek-tili-chindan-ham-davlat-va-xa>
5. O.Xusanov. O'zbek tili tarixi boy va betakror. Bulung'ur hayoti gazetasi. 19-04-2019. <http://bulungurhayoti.uz/index.php?newsid=2114>.
6. Muhammedova S.Harakat fe'llari asosida kompyuter dasturlari uchun lin gvistik ta'minotini yaratish. Metodik qo'llanma. –T., 2006.

